6) IGXning HER2 ga shubhali natijasida, in situ gibridizatsiyasi usulida HER2/neu geni amplifikatsiyasini aniqlash (CISH yoki FISH);

7) Immunoterapiya masalasini hal qilish uchun uch karra negativ KBSda PD-L1 miqdorini aniqlash;

8) Zarurat bo‘lsa: Cytokeratin 5/6, Calponin-1, E-Cadherin, GCDFP-15, Mammaglobin, p120 va Topoisomerase IIa ni aniqlash.

PARP ingibitorlari (olaparib1 va talazoparib) ni buyurish masalasini hal qilish maqsadida, yoshi, oilaviy anamnezi va KBSning turidan qat’iy nazar mKBS va progressiyalanishda, germinal BRCA1/2 mutatsiyalarini aniqlash uchun molekular genetik testlash barcha bemorlarga ko‘rsatma bo‘ladi [6,7]. Germinal BRCA1 yoki 2

genining ijobiy mutatsiyasiga ega bo'lgan ayollarda 70 yoshdan oldin ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish 45-65% ni tashkil qiladi. Bu genlar ko'pincha aniqlanadi:

- Og'irlashgan oilaviy anamnezda (yaqin qarindoshlarda < 50 yoshida ko'krak bezi saratoni, erkaklarda ko'krak bezi saratoni, tuxumdon saratoni, metastatik prostata saratoni, oshqozon osti bezi saratoni mavjudligi);
- 45 yoshdan kichik bemorlar;
- 60 yoshdan kichik ayollar, KBSning uch karra negativ feotipida;
- Birlamchi ko'plab KBS;
- KBSning jarrohlik davosi, neoad'yuvant yoki ad'yuvant davodan so'ng retsidiv havfi yuqori bo'lgan HER2 negativ fenotipli bemorlarda;
- erkaklarda KBSda.

Plazma va to'qimada quyidagilarni aniqlash uchun PZR: alpelisiba*ni fulvestrant bilan kombinatsiyasini buyurish masalasini hal qilish uchun HR-pozitiv/HER2- negativ mKBSda PIK3CA mutatsiyasini baholash [6, 7].

Tarqalgan ko'krak bezi saratoni (uch karra negativ va progressiyalanuvchi HER2+) da og'ir klinik kechishli, agressiv o'smali, progressiyaning yuqori xavfili, o'smaga qarshi davolash an'anaviy usullari ta'siri qilmagan bemorlarda kompleks genom profillash

Eslatma: 1 olaparib BRCA mutatsiyalar mavjud bo'lganda, ad'yuvant rejimda* va metastatik jarayonda buyuriladi.

5) Instrumental tekshiruvlar, sindromni aniqlash uchun zarur, palliativ yordam tashkilotida kasalxonaga yotqizishdan oldin amalga oshiriladi [ID-A]:

- Sut bezlari, regionar limfa tugunlarining UTTsi: tarkibida katta/kichik mikrokalsinatlar bo'lgan gipoexogen strukturalarning mavjudligi, konturlari notekis, yulduzsimon, aralash exogenlikdagi joylari bo'lishi mumkin, tugun tuzilishi geterogen, vaskulyarizatsiya kuchayishi mumkin;
- Mammografiya: (ikki proyeksiyadagi mammogrammalarda tuzilishida bir nechta mikrokalsinatlar bo'lgan shaklsiz geterogen zichlashishlar, stromaning kuchli deformatsiyasi, terining, so'rg'ich-areola kompleksining qalinlashishi, so'rg'ich tortilgan bo'lishi mumkin, qamrab olingan limfa tugunlarining mavjudligi);
- Kontrast spektral mammografiya (CESM usuli): Yod saqlovchi kontrast moddani tomir ichiga yuborgandan so'ng, yumshoq va qattiq tasvirlar olinuvchi mamografiyadan iborat. CESM usuli ko'krak bezi saratonining erta shakllarini tashxislashda ma'lumotli bo'ladi, ko'krak bezining zich qismida patologiyani aniqlashga imkon beradi va havfli va havfsiz o'smalarni differensial diagnostikasi

sifatida ishlatiladi. Tekshirishni o'tkazishdan oldin qondagi kreatinin va mochevina darajasi baholanadi. Yod saqlovchi kontrast modda vena ichiga bemorning vazniga 1,0-1,5 ml miqdorida yuboriladi. Tasvirlar kontrast modda kiritilgandan keyin 2-7 minut vaqt oralig'ida kranio-kaudal (CS) va mediolateral (MLO) ikkita proyeksiyada olinadi;

- Quyidagi ko'rsatmalarda mahalliy tarqalishni baholash uchun ko'krak bezi MRTsi bajariladi: 30 gacha bo'lgan yosh, BRCA1 va BRCA2 genlarida mutatsiyalarning mavjudligi; ko'krak bezi bezlarining rentgenologik yuqori zichligi; yuqori sifatli mamografik tekshiruvni amalga oshirishning iloji bo'lmaganda ko'krak bezi implantlarining mavjudligi; in situ lobulyar saratonning mavjudligi [5];
- Duktografiya: (so'rg'ich orqasida intraduktal hosilalar mavjud bo'lganda, hajmi va uning so'rg'ich-areolyar kompleksidan masofasini aniqlashtirish uchun amalga oshiriladi);
- O'sma hosilasining punktsion biopsiyasi (sitologik tekshiruv hujayra hajmining gigant o'lchamlargacha o'sishini, hujayra ichidagi elementlarning shakli va sonining o'zgarishini, yadro hajmining, uning konturlarining kattalashishini, yadro va boshqa hujayra elementlari yetukligining turli darajasini, yadrochalar soni va shaklining o'zgarishini ko'rsatadi);
- Trepan-biopsiya yoki ekspress gistologiya bilan ko'krak bezi sektoral rezeksiyasi (o'smaning gistologik verifikatsiyasi: o'smaning gistologik turi, differentsiatsiya darajasi (grade – naychalar shakllantirish xususiyati, yadro polimorfizmi, mitozlar soni), nekroz, qon tomir invaziyasi, infiltratsion limfotsitlar o'smasi (TILS), kalsifikatsiya mavjudligi);
- Qorin bo'shlig'i va qorin parda orti sohasi UTTsi / kichik chanoq UTTsi: (jigarning metastatik shikastlanishida uning strukturasi har-xil jinsli bo'ladi, yumaloq shaklli, notekis aniq konturli, periferiya bo'ylab gipoyexogen halqali, bitta yoki bir nechta hosilalar);
- Qorin bo'shlig'i organlarining ultratovush tekshiruvi natijalari noaniq yoki yetarli ma'lumotga ega bo'lmasa, tomir ichiga kontrastli qorin bo'shlig'i organlarining kompyuter tomografiyasi yoki MRTsi;
- Ko'krak bezi qafasi umumiy rentgen tekshiruvi/kompyuter tomografiyasi: (metastatik o'pka shikastlanganda, barcha o'pka maydonlarida yoki segmentda aniq konturli, turli o'lchamdagi bir nechta/bitta o'rta fokusli soyalar aniqlanadi);
- Skelet suyaklarini ssintigrafiyasi: (patologik suyak hosilalari o'choqlarida osteogen preparatning giperfiksatsiyasi) ko'krak bezi saratoni tarqalishini baholash uchun skelet suyaklarining metastatik shikastlanishiga shubha qilingan taqdirda;
- PET-pozitron-emission tomografiya: (patologik o'choqlarda preparatning yig'ilishi),

tumorotrop RFP li kompyuter tomografiya bilan birgalikda (kontrast bilan yoki usiz) (PET-KT) standart bosqichni baholovchi usullar naf bermaganda va ayniqsa metastaz aniqlanishi davo taktikasini tubdan o'zgartiradigan mahalliy tarqalgan jarayon holatlarida, KBSni tarqalganlik darajasini aniqlash uchun [5];

- Bosh miyada metastazlar borligiga gumon qilinganda, metastatik jarayonni istisno qilish maqsadida v/i kontrastlash bilan bosh miyaning MRTsi yoki KTsi;

4. Palliativ tibbiy yordamning maqsadlari:

- ✓ Og'riq va boshqa og'riqli alomatlarining oldini olish va yo'q qilish, bemorning azobini yengillashtirish;
- ✓ Saraton kasalligining rivojlanishini sekinlashtirish va bemorning umrini uzaytirish;
- ✓ Bemor hayoti farovonligini oshirish hayot sifatini yaxshilash;
- ✓ Psixologik, ijtimoiy, ma'naviy qo'llab-quvvatlash, psixosomatik tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- ✓ O'smaga qarshi davolashning nojo'ya ta'sirini yengish uchun;

5. Palliativ tibbiy yordam ko'rsatish taktikasi:

- o'sma o'qog'i va metastazlarni kichraytirish;
- o'sma jarayoni qisman regressiyasi yoki stabilizatsiyasiga erishish;
- hayot sifatini yaxshilash;
- hayot davomiyligini uzaytirish.

1) Palliativ yordam ko'rsatishda bemorni kuzatish kartasi, bemorni marshrutizatsiyasi (sxemalar, algoritmlar).

Menstrual status	I-IIA bosqich		IIB-IIIC bosqich		IV bosqich
	neoad'y u vant	ad'yuvan t	neoad'y u vant	ad'yuvant	
					-

Pre menopauza	Past	Operativ davо	Tamoksifen 20 mg/sut + A-GRG	<i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut + A-GRG → Operativ davо	<i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut. + A-GRG	1-liniya: <i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut. + A-GRG 2-liniya: IA +/- CDK4/6 inhibitorlari 3-liniya: <i>Fulvestrant</i> 500 mg +/-CDK4/6 inhibitorlari
	O'rtacha	Operativ davо	XT/XTT ± Tamoksifen 20 mg/sut.	<i>XT/XTT</i> → Operativ davо	<i>XT/XTT</i> ± <i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut. ± A-GRG	<i>XT/XTT</i> + <i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut. ± A-GRG, ET +/- CDK4/6 inhibitorlari
	Yuqori	<i>XT/XTT</i> → Operativ davо	<i>XT/XTT</i>	<i>XT/XTT</i> → Operativ davо	<i>XT/XTT</i> + <i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut. + A-GRG	<i>XT/XTT</i> + <i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut. ± A-GRG, ET +/- CDK4/6 inhibitorlari
Postmenopauza	Past	Operativ davо	<i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut./IA	<i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut./IA → Operativ davо	<i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut./IA	1-liniya: <i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut. 2-liniya: IA +/- CDK4/6 inhibitorlari 3-liniya: <i>Fulvestrant</i> 500 mg +/-CDK4/6 inhibitorlari
	O'rtacha	Operativ davо	<i>XT/XTT</i> ± <i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut./IA	<i>XT/XTT</i> → Operativ davо	<i>XT/XTT</i> ± <i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut./IA	<i>XT/XTT</i> ± <i>Tamoksifen</i> 20 mg/sut. ; IA +/- CDK4/6 inhibitorlari; <i>Fulvestrant</i> 500 mg +/-CDK4/6 inhibitorlari

	Yuqori	Operativ davvo	<i>XT/ XTT ± Tamoksifen 20 mg/sut. /IA</i>	<i>XT/ XTT</i> → Operativ davvo	<i>XT/XTT ± Tamoksifen 20 mg/sut. /IA</i>	<i>XT/XTT ± Tamoksifen 20 mg/sut.; IA+/-CDK4/6 ingibitorlari; Fulvestrant 500 mg +/-CDK4/6 ingibitorlari</i>
--	---------------	----------------	--	---------------------------------------	---	--

32-jadval. Homiladorlikni saqlab qolish va to‘liq tug‘ilishni ta‘minlash xoxishi bo‘lganda gestatsiya davri (trimestri) va o‘smanning biologik subtipiga qarab ko‘krak bezi saratoni bilan og‘rigan bemorlarni tizimli dori-darmon bilan davolash [9]

KBS subtipi	Homiladorlik davriga qarab KBSni dori-darmon bilan davolash bo‘yicha tavsiyalar		
	Uch oylik	erta KBS (neo-, ad'yuvant)	Metastatik KBS
Gormonga sezgir lyuminal A (ER+ / PR > 20 % / HER-2- / Ki-67 < 20 %)	Gormonoterapiya qarshi ko‘rsatilgan		
	I	tug‘ruqdan keyin gormonoterapiya, kuzatish	II uch oylikkacha kuzatuv
	II		antratsiklin saqllovchi kimyo terapiya
	III		antratsiklin saqllovchi kimyo terapiya
Lyuminal B (ER+ / PR ≥20 % / HER-2- / Ki-67 > 20 %)	I	II uch oylikkacha kuzatuv	Nablyudeniye do II trimestra
	II	antratsiklin saqllovchi kimyo terapiya	antratsiklin saqllovchi kimyo terapiya
	III	antratsiklin saqllovchi kimyo terapiya	antratsiklin saqllovchi kimyo terapiya
Lyuminal B (ER+/PR >20%/HER-2+/Ki-67>20%); HER-2 pozitiv tip (HER-2+ /ER-/PR-)	Trastuzumabom bilan target anti-HER-2-terapiya qarshi ko‘rsatilgan		
	I	II uch oylikkacha kuzatuv	Agar kimyo terapiya va/yoki anti-HER-2-terapiya o‘tkazish zarur bo‘lsa, tibbiy abort masalasini hal qilish

	II	antratsiklin saqlovchi kimyo terapiya, Zarur bo'lsa taksanlar; tug'ruqdan keyin trastuzumab	antratsiklin saqlovchi kimyo terapiya, Zarur bo'lsa taksanlar; tug'ruqdan keyin trastuzumab
	III	34 haftagacha kimyo terapiya (o'z vaqtida tug'ruq maqsadga muvofiq)	
Уч катта негaтив (ER-/PR-/HER-2-)	I	II uch oylikkacha kuzatuv	Agar kimyo terapiya o'tkazish zarur bo'lsa, tibbiy abort masalasini hal qilish
	II	antratsiklin saqlovchi kimyo terapiya, Zarur bo'lsa taksanlar;	antratsiklin saqlovchi kimyo terapiya, Zarur bo'lsa taksanlar
	III	34 haftagacha kimyo terapiya (o'z vaqtida tug'ruq maqsadga muvofiq)	

2) Palliativ nomedikamentoz davо

Rejim:

- V. konservativ davо paytida bemorning rejimi - umumiy;
- VI. erta operatsiyadan keyingi davrda - yotoq yoki yarim yotoq rejimi (operatsiya hajmiga va hamroh patologiyaga qarab);
- VII. operatsiyadan keyingi davrda – palata rejimi.
- VIII. Parhez: Stol – 15, jarrohlik amaliyotidan so'ng №1.

Palliativ nur terapiya

Palliativ nur terapiyaga ko'rsatmalar:

- I. morfologik tasdiqlangan havfli o'sma tashhisi;
- II. ilgari kombinatsiyalangan yoki kompleks davolash olgan bemorlarda kasallikning retsidivlari, davomli o'sish yoki progressiyalanishida.

Palliativ nur terapiya usullari:

- IV. Uzluksiz nur terapiya;

- V. SRSda bir fraksiyali nur terapiya;
- VI. Fraksionlashgan nur terapiya BMO'D 1,6 Grdan 12,0 Grgacha, haftasiga 2-5 fraksiyadan.
 - 6. standart fraksiyalash;
 - 7. gipo fraksiyalash;
 - 8. giper fraksiyalash;
 - 9. tezlashgan fraksiyalash;
 - 10. multi fraksiyalash.

Distansion nur terapiya 2D, 3D, IMRT, RapidArc, IGRT konform nurlanishda BMO'D 1,8-2,0-2,66, 2,67, 5.2 Gr haftasiga 5 fraksiyada SO'D 50Gr, 42,56 Gr, 40.05 Gr, 25Gr va 60-70 Gr mustaqil rejimda, SO'D 10-16 Gr («Boost») a'zo saqlovchi operatsiyalardan keyin amaliyotdan keyingi davrda. Uzluksiz nur terapiya kursi qo'llaniladi. Nur terapiya gammaterapevtik uskunalari yoki chiziqli tezlatkichda o'tkaziladi.

Summar va o'choqli dozalariga erishishda **tomoterapiya** fraksiyalashning standart usuli sifatida qo'llaniladi. Asosiy ustunligi - BMO'D < 2,5 Grda gipofraksiyalash.

Ko'krak bezi saratoni T1-2N0-1M0 bosqichida a'zo saqlovchi amaliyotlar bajarilganda **intraoperatsion** nur terapiya qo'llaniladi. Unda qolgan havfli o'smalarni devitalizatsiya qilish maqsadida olib tashlangan o'sma o'rni elektron to'plam BMO'D 10-20 Gr nurlantiriladi.

Metastatik KBSda nur terapiyasi.

- **Bosh miyaning metastatik shikastlanishi**

Miyada solitar metastaz bo'lsa, davolash taktikasini mammolog jarroh, radiolog onkolog, kimyoterapevt va neyroxirurg bilan maslahatlashib, davolash taktikasini (jarrohlik, NT, kimyoterapiya, temozolomid yuborish) aniqlash kerak.

- 3. Bosh miyani S1 bo'yin umurtqasigacha total nurlantirish:

- a. BMO'D 2,0 Gr haftasiga 5 fraksiya SO'D 30-40 Gr;
- b. BMO'D 2,5 Gr haftasiga 5 fraksiya SO'D 30-35 Gr;
- c. BMO'D 3,0 Gr haftasiga 5 fraksiya SO'D 30-33 Gr;
- d. BMO'D 4,0 Gr haftasiga 5 fraksiya SO'D 20 Gr.

- 4. Bosh miyani lokal nurlash

- d. stereotaksik radioxirurgiya (SRS) - BMO'D 10,0 – 30,0 Gr 1 fraksiya metastaz o'lchami diametri 3 smdan katta bo'lganda;
- e. stereotaksik radioterapiya (SRT) – BMO'D 6,0-10,0 Gr 3-5 fraksiya metastaz o'lchami 3,0 smdan 6,0 smgacha bo'lganda;

f. metastazlarni lokal nurlanish BMO‘D 2,0-3,0 SO‘D 20-60 Grgacha. Nurlanish yakunlangandan so‘ng kimyo terapiya konsultatsiyasi majburiy.

- **Suyaklarni metastatik shikastlanishi**

Umurtqa shikastlanganda, zararlarga umurtqa, undan yuqoridagi va pastdagi 1 tadan umurtqanurlanish hajmiga kiradi. Metastatik shikastlanish umurtqaning bo‘yin va ko‘krak qismlarida joylashganda BMO‘D 2,5 Gr, 3 Gr, 4 Gr, 8 Gr SO‘D 25 Grgacha, 30 Gr, 24 Gr va nurlanish maydoni uzunligi 10 smdan katta bo‘lganda. Lokal nurlanish sohasi 10 smdan kichik bo‘lganda SO‘D 28 Grgacha oshirilishi mumkin. Skelet suyaklarining boshqa suyaklari shikastlanganda atrof normal to‘qimalar tolerantligini hisobga olgan holda SO‘D 60 Grni tashkil etishi mumkin.

Kuchli og‘riq qindromida va rejalashtirilgan nurlanish sohasida orqa miya ezilishi bo‘lmaganda, simptomatik og‘riq qoldirish maqsadida zararlanish sohasiga SO‘D 8 Gr bir marta lokal nurlanish o‘tkazish mumkin.

- **Jigarning metastatik shikastlanishi**

Jigarda metaxron solitar metastatik o‘choq aniqlanganda, davolash taktikasi jarroh, radiolog va kimyoterapevt ishtirokidagi konsilium orqali aniqlanadi. Tizimli terapiya va metastazni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlashdan bosh tortgan taqdirda nur terapiyasi o‘tkaziladi.

Lokal zararlanishda (solitar o‘choq) metastaz sohasiga nishonli BMO‘D 2 Gr, SO‘D 60 Gr nur terapiya o‘tkaziladi.

Ko‘plab shikastlanishda jigarni BMO‘D 2 Gr, SO‘D 30-40 Gr nurlantirish mumkin.

Transfuzion qo‘llab quvvatlash.

Transfuzion terapiya uchun ko‘rsatmalar, birinchi navbatda, har bir bemor uchun yoshi, hamroh kasalliklari, kimyoterapiyaning tolerantligi va davolashning oldingi bosqichlarida asoratlarning rivojlanishini hisobga olgan holda individual ravishda klinik ko‘rinishlar bilan belgilanadi.

Ko‘rsatmalarni aniqlash uchun laboratoriya parametrlari yordamchi ahamiyatga ega bo‘lib, ular asosan trombositlar konsentratini profilaktik quyish zarurligini baholash uchun qo‘llaniladi.

Transfuziyalarga ko‘rsatmalar, shuningdek, kimyoterapiya kursidan keyingi vaqtga bog‘liq – keyingi bir necha kun ichida ko‘rsatkichlarning taxmin qilingan pasayishi hisobga olinadi.

Eritrotsitar massa (DID):

- To‘qimalarning kislorodga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun odatdagi zaxiralar va kompensatsiya mexanizmlari yetarli bo‘lsa, gemoglobin darajasini oshirish shart emas;
- Surunkali anemiyalarda eritrotsitlarni saqlovchi vositalarni quyish uchun faqat bitta ko‘rsatma mavjud – simptomatik anemiya (taxikardiya, nafas qisilishi, stenokardiya, senkop, de novo depressiyasi yoki ST elevatsiyasi bilan namoyon bo‘ladi);
- Gemoglobin darajasining 30 g/l.dan kam bo‘lishi, eritrotsitlar transfuziyasi uchun absolyut ko‘rsatma bo‘ladi;
- Yurak-qon tomir tizimi va o‘pkaning dekompensatsiyalangan kasalliklari bo‘lmasa, surunkali anemiyada eritrotsitlarni profilaktik quyish uchun ko‘rsatma bo‘lishi mumkin bo‘lgan gemoglobin darajasi:

Yoshi (yosh)	Hb (g/l) trigger darajasi
– <25	– 35-45
– 25-50	– 40-50
– 50-70	– 55
– >70	– 60

Trombotsitlar konsentrati (UDD):

- Trombotsitlar darajasining 10 x10⁹/l.dan pasayishi yoki terida gemorragik toshmalarning paydo bo‘lishida (petexiyalar, ko‘karishlar) aferez trombotsitlar bilan profilaktik transfuziya o‘tkaziladi;
- Isitma bilan, invaziv aralashuv rejalashtirilayotgan bemorlarga yuqoriroq darajada ham (20 x10⁹/l) aferez trombotsitlar bilan profilaktik transfuziya o‘tkazilishi mumkin;
- Petexial-dog‘li tipdagi gemorragik sindrom (burun, milkdan qon ketish, meno-, metrorragiya, boshqa lokalizatsiya qon ketishlari) mavjud bo‘lganda, trombotsitlar konsentratini quyish davolash maqsadida amalga oshiriladi.

Yangi muzlatilgan plazma (UDD):

- YAMPni transfuziyasi qon ketishli bemorlarda yoki invaziv muolajalar o‘tkazishdan oldin o‘tkaziladi.
- MNO ≥ 2.0 bo‘lgan bemorlar (neyrojarrohlik aralashuvlarida ≥ 1.5) invaziv muolajalarni rejalashtirishda YAMP quyish uchun kandidat sifatida ko‘riladi. Rejali amaliyotlarda amaliyotdan kamida 3 kun oldin fitomenadion 30 mg/sut dan kam bo‘lmagan dozada vena ichiga yoki ichishga buyurilishi mumkin.

2) Medikamentoz davolash

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tmagan dori vositalarining klinik bayonnomaga kiritilishi bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida va majburiy ijtimoiy tibbiy sug‘urta tizimida xarajatlarni qoplash uchun asos bo‘lmaydi.

Palliativ kimyo terapiya.

Palliativ kimyo terapiya metastatik saraton hujayralarini kichratirish maqsadida o‘tkaziladi.

Lokalizatsiyaga va o‘sma turiga bog‘liq ravishda kimyo terapiya turli sxemalarda buyuriladi va o‘z hususiyatlariga ega.

Palliativ kimyo terapiyaga ko‘rsatmalar:

- sitologik va gistologik tasdiqlangan KBS;
- mahalliy tarqalgan o‘smalarni davolashda;
- regionar limfa tugunlarida/uzoq a‘zolarida (o‘pka, jigar, bosh miya, suyaklarda) metastazlar;
- o‘sma retsidiylari;
- bemorda qon surati qoniqarli bo‘lishi: gemoglobin va gemokrit, granulotsitlar absolyut soni normal –200 dan ortiq bo‘lganda, trombotsitlar –100000 dan ortiq bo‘lganda;
- jigar, buyraklar, nafas tizimi va YUQT faoliyati saqlanganda;
- nooperabel jarayonni operabel jarayonga o‘tkazilganlik extimolida;
- bemor operatsiyadan bosh tortganda;
- o‘smaning yomon fenotiplarida (uch karra negativ, Her2-negativ saratonda) uzoq davolash natijalarini yaxshilash.

Kimyo terapiyaga qarshi ko‘rsatmalar:

Kimyo terapiyaga qarshi ko‘rsatmalar ikki guruhga bo‘lish mumkin: absolyut va nisbiy.

Absolyut qarshi ko‘rsatmalar:

- gipertermiya >38 gradus;
- dekompensatsiya bosqichidagi kasalliklar (yurak-qon tomir , nafas olish tizimi, jigar, buyraklar);

- o‘tkir infeksiyaon kasalliklarning mavjudligi;
- psixik kasalliklar;
- bitta yoki bir nechta mutahassislar tomonidan tasdiqlangan, ushbu davoning samaradorligi;
- o‘smanni parchalanishi (qon ketish havfi);
- Karnovskiy shkalasi bo‘yicha 50% va undan kam bemor umumiy ahvolidning og‘irligi (1-ilovaga qarang).

Nisbiy qarshi ko‘rsatmalar:

- 16-18 haftalik homiladorlik;
- organizm intoksikatsiyasi;
- faol o‘pka tuberkulezi;
- qon tarkibining turg‘un patologik o‘zgarishlari (anemiya, leykopeniya, trombositopeniya);
- kaxeksiya.

Quyida KBS da eng ko‘p ishlatiladigan polikimyo terapiya rejimlarining sxemalari keltirilgan. Ular neoad‘yuvant (induksion) kimyoterapiya va ad‘yuvant polikimyo terapiya uchun, so‘ngra jarrohlik aralashuvi va nur terapiyasi, shuningdek retsidiv va metastatik o‘smalar uchun ishlatilishi mumkin.

RETSIDIV VA METASTATIK KO‘KRAK BEZI SARATONI

- KBSning lyuminal A tipida birinchi bosqichda antiestrogenlar bilan yoki postmenopauzada aromataza ingibitorlari bilan gormon terapiya qilinadi. Bunda kimyo terapiya samarasi davo boshlangandan eng kamida 3 oydan so‘ng baholanishi kerak. Gormon terapiyasining I liniyasi fonida kasallikning progressiyasi kuzatilsa, II, keyin III kimyoterapiya liniyasiga o‘tkaziladi.
- mKBSda kimyo terapiya ER va PR manfiy, shuningdek yuqori darajali Ki67>20% va Her-2/neu (3+) bemorlarga buyuriladi.
- I liniya kimyo terapiya sifatida antratsiklin-saqllovchi sxemalar qo‘llaniladi: AS, FAC, FEC, CAF, AT, ST.
- Jarayon progressiyalanishida taksanlar, vinorelbin, kapetsitabin, platina preparatlari, gemitabin saqllovchi 2-3 liniya ximioterapiyasi qo‘llaniladi.
- Antratsiklinlarga qarshi ko‘rsatma bo‘lganda CMF, kapetsitabin bilan monoterapiya qo‘llaniladi.

- **Yuqori havf:** tez progressiyalanuvchi kasallikli, visseral shikastlanishli, gormon manfiy retseptorli bemorlar:
 - 1) FAC, CAF, AT, ST, kapetsitabin;
 - 2) jarayon progressiyalanishida taksan preparalari bilan 2-3 liniya kimyo terapiyasini o‘tkazish;
 - 3) taksanlarga rezistentlikda sxemaga kapetsitabin, gemitabin, vinorelbin, platina preparatlari, liposomal doksorubitsin qo‘shiladi. Ximio preparatlar kombinatsiyada yoki monorejimda qo‘llanilishi mumkin, shuningdek Her-2-neu giperekspressiyasida target preparatlari (trastuzumab, lapatinib) bilan birga qo‘llanilishi mumkin;
 - 4) ximio preparatlar kombinatsiyada yoki monorejimda, shuningdek, Her-2-neu giperekspressiyasida target preparatlari (pertuzumab+ trastuzumab+ dots.taksel (mKBS ning 1-liniya terapiyasi), trastuzumab, lapatinib) bilan kombinatsiyada qo‘llanilishi mumkin;
 - 5) qisman yoki manfiy javobda KBSga sezgir preparatlar bilan proba kurslari davom ettiriladi;
 - 6) o‘smaga qarshi terapiyaning barcha yo‘nalishlariga javob bo‘lmasa, bemorlar qo‘llab-quvvatlovchi terapiyasiga o‘tkaziladi (B toifa).

Retsidiv va metastatik KBSda tavsiya etiladigan kimyo terapiya rejimlari. Afzal monorejimlar:

antratsiklinlar:

- Doksorubitsin 60–75 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada yoki 20 mg/m² v/i har hafta;
- pegilirlangan liposomal doksorubitsin 50 mg/m² v/i 1-kun har 4 haftada (antratsiklinlar buyurilishiga qarshi ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda);

taksanlar:

- Paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada, yoki 80 mg/m² v/i har hafta;

Antimetabolitlar:

- Kapetsitabin 2000-2500 mg/m² ichishga 1-chi–14-kunlar har 3 haftada;
- Gemitabin 800-1200 mg/m² v/i 1-chi, 8-chi, 15-kunlar har 3 haftada;

Mikronaychalar ingibitorlari:

- Vinorelbin 25 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar v/i har 3 haftada;

- Eribulin 1,4 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar har 3 haftada;

PARP ingibitorlari:

- Olaparib 300 mg ichishga , kuniga 2 marta, har 28 kunda (BRCA mutatsiyasi mavjud bo‘lganda).

Boshqa monorejimlar:

- Siklofosfamid 50 mg/sut. ichishga har kuni 1-21 kunlar, har 28 kunda;
 - Karboplatin AUC 6 v/i 1-kun har 3-4 haftada;
 - Dots.taksel 60–100 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada;
 - Albumin-bog‘langan paklitaksel 260 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada, yoki 100-125 mg/m² v/i 1,8, va 15-kunlar, har 28 kunda;
 - Sisplatin 75 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada;
 - Epirubitsin 60–90 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada;
 - Vinorelbin** 25 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar v/i har 3 haftada;
 - Vinorelbin** 60 mg/m² ichishga 1-chi, 8-chi, 15-kunlar; 22-kundan – 80 mg/m² haftada 1 marta;
 - Iksabepilon 40 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada (antratsiklin, taksan, kapetsitabinga rezistentlikda).Комбинирланган режимлар:
1. CAF: siklofosfamid 100 mg/m² ichishga 1-chi–14-kunlar + doksorubitsin 30 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar, 5-ftoruratsil 500 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar har 4 haftada;
 2. FAC: 5-ftoruratsil 500 mg/m² v/i 1-kun + doksorubitsin 50 mg/m² v/i 1-kun + siklofosfamid 500 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada;
 3. FEC: 5-ftoruratsil 500 mg/m² v/i 1-kun + epirubitsin 50-100 mg/m² v/i 1-kun + siklofosfamid 500 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada;
 4. AS: doksorubitsin 60 mg/m² v/i 1-kun + siklofosfamid 600 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada;
 5. EC: epirubitsin 75 mg/m² v/i 1-kun + siklofosfamid 600 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada;
 6. CMF: siklofosfamid 100 mg/m² ichishga 1-chi–14-kunlar + metotreksat 40 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar + 5-ftoruratsil 600 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar har 4 haftada;
 7. Dots.taksel 75 mg/m² v/i 1-kun + kapetsitabin 1900mg/m² ichishga 1–14-kunlar har 3 haftada;

8. GT: paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-kun + gemsitabin 1250 mg/m² v/i 1-chi, 8-chikunlar har 3 haftada;
9. Gemitabin 1000 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar + karboplatin AUC-2 v/i 1-chi, 8-kunlar, har 3 haftada;
10. Paklitaksel 80 mg/m² v/i + karboplatin AUC-2 v/i har hafta (yoki karboplatin AUC5-6 har 3 haftada, yoki sisplatin 75mg/m² har 3 haftada);
11. Paklitaksel 90 mg/m² v/i 1-chi, 8-chi, 15-kunlar + bevatsizumab 10mg/kg 1-chi va 15-kunlar, har 4 haftada;
12. Siklofosamid 50 mg/sut. ichishga har kuni + metotreksat 2,5 mgdan ichishga kuniga 2 mahal har haftaning 1-chi i 2-kunlari (metronom rejim);
13. Kapetsitabin 2000 mg/m²/sut ichishga 1-14-kunlar + vinorelbin 25 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar har 3 haftada
14. Vinorelbin 25 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar + trastuzumab 8 mg/kg 1 yuborish, keyinchalik 6 mg/kg har 3 haftada

HER2-manfiy KBSni ximioimmunoterapiyasi

- Albumin-bogʻlangan paklitaksel 100 mg/m² v/i 1-chi, 8-chi, 15-chi kunlar + atezolizumab 840 mg v/i 1-chi va 15-chi kunlar har 4 haftada (Uch karra negativ KBS bemorlarida immunokompetent hujayralarida PD-L1 \geq 1 % ekspressiyasida birinchi liniya terapiyasi sifatida.

HR va HER-2 negativ retsidiylanuvchi norezektabel KBSni davolash uchun (mahalliy, regionar), yoki 4 bosqich KBS (M1) da terapiyaning 1-chi liniyasi sifatida, validirlangan test yordamida oʻsma hujayralari tomonidan PD-L1 (CPS \geq 10) musbat ekspressiyasi kuzatilgan taqdirda, quyidagi kombinatsiyalarni qoʻllash tavsiya etiladi [13-15];

1. Pembrolizumab 200 mg, har 21 kunda 1 marta; Paklitaksel 90 mg/m² (Albumin-bogʻlangan paklitaksel 100 mg/m²), 1-chi, 8-chi, 15-chi kunlar, har 28 kunda.
2. Pembrolizumab 200 mg, har 21 kunda 1 marta; Gemitabin 1000 mg/m², 1-chi, 8-chi kunlar, har 21 kunda; Karboplatin AUC 2, 1-chi, 8-chi kunlar, har 21 kunda.

Target (anti-HER2) terapiya

3. 1. Pertuzumab 420 mg (yuklama doza – 840 mg) v/i 1-kun 3 haftada 1 marta + trastuzumab 6 mg/kg (yuklama doza – 8 mg/kg) v/i 1-kun 3 haftada 1 marta + dots.taksel 75-100 mg/m² v/i 1-kun 3 haftada 1 marta (terapiya 1-chi liniyasi maqsadga muvofiq rejimi)
4. 2. Pertuzumab 420 mg (yuklama doza – 840 mg) v/i 1-kun 3 haftada 1 marta +

trastuzumab 6 mg/kg (yuklama doza – 8 mg/kg) v/i 1-kun 3 haftada 1 marta + paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-kun 3 haftada 1 marta yoki 80 mg/m² v/i har hafta. (terapiya 1-chi liniyasi maqsadga muvofiq rejimi).

5. Trastuzumab-emtanzin 3,6 mg/kg v/i 1-kun 3 haftada 1 marta.
6. Trastuzumab 2 mg/kg (yuklama doza – 4 mg/kg) v/i har hafta yoki 6 mg/kg (yuklama doza – 8 mg/kg) v/i 1-kun har 3 haftada + paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-kun + karboplatin AUC 6 v/i 1-kun, har 3 haftada.
7. Trastuzumab 2 mg/kg (yuklama doza – 4 mg/kg) v/i har hafta yoki 6 mg/kg (yuklama doza – 8 mg/kg) v/i 1-kun har 3 haftada + paklitaksel yoki 80 mg/m² v/i 1-chi, 8-chi, 15-kun + karboplatin AUC 2 v/i 1-chi, 8-chi, 15-kun, har 4 haftada.
8. Trastuzumab 2 mg/kg (yuklama doza – 4 mg/kg) v/i har hafta yoki 6 mg/kg (yuklama doza – 8 mg/kg) v/i 1-kun har 3 haftada + paklitaksel 175 mg/m² v/i 1-kun har 3 haftada yoki 80-90 mg/m² v/i har hafta.
9. Trastuzumab 2 mg/kg (yuklama doza – 4 mg/kg) v/i har hafta yoki 6 mg/kg (yuklama doza – 8 mg/kg) v/i 1-kun har 3 haftada + dots.taksel 75-100 mg/m² v/i 1-kun 3 haftada 1 marta.
10. Trastuzumab 2 mg/kg (yuklama doza – 4 mg/kg) v/i har hafta yoki 6 mg/kg (yuklama doza – 8 mg/kg) v/i 1-kun har 3 haftada + vinorelbin 30-35 mg/m² v/i 1-chi va 8-kunlar v/i har 3 haftada yoki 25 mg/m² v/i har hafta.
11. Trastuzumab 2 mg/kg (yuklama doza – 4 mg/kg) v/i har hafta yoki 6 mg/kg (yuklama doza – 8 mg/kg) v/i 1-kun har 3 haftada + kapetsitabin 2000-2500 mg/m² ichishga 1-chi–14-kunlar har 3 haftada.
12. Lapatinib 1250 mg/sut. ichishga har kuni + kapetsitabin 2000 mg/m²/sut. ichishga 1-chi–14-kunlar har 3 haftada.
13. Lapatinib 1500 mg/sut. ichishga har kuni + aromataza ingibitorlari (letrozol 2,5 mg/sut. ichishga har kuni).
14. Trastuzumab derukstekan*1 5,4 mg/kg v/i 1-kun har 3 haftada (* preparat O‘zbekiston territoriyasida registratsiyadan o‘tganidan so‘ng qo‘llaniladi) (2-chi liniya (1-toifa) maqsadga muvofiq rejim). 1-chi liniya, agar rKBS tufayli neoad’yuvant yoki ad’yuvant antiHER2- terapiya vaqtida yoki yakunlanganidan so‘ng 6 oy davomida retsidiv rivojlangan taqdirda.

Eslatma: 1- norezektabel yoki metastatik HER2 past ekspressiyasi bo‘lgan (IGX+ yoki IGX2+/FISH/CISH-) KBS bemorlari uchun kimyo terapiyadan progressiyalanish kuzatilganda yoki agar rKBS tufayli ad’yuvant kimyo terapiya vaqtida yoki yakunlanganidan so‘ng 6 oy davomida retsidiv rivojlangan taqdirda.

Suyak strukturalarining metastatik shikastlanishida osteomodifikatsiyalovchi preparatlar

3. *Bisfosfonatlar:*

- Zoledron kislota 4 mg v/i, 15 daqiqa davomida har 4 haftada yoki har 3 oyda;
- Pamidron kislota 90 mg v/i, 2-4 soat davomida har 4 haftada yoki har 3 oyda.

Bifosfonatlardan foydalanish suyak metastazlari mavjudligini aniqlash va rentgenologik tasdiqlashdan soʻng darhol boshlanishi va buyrak funksiyasini muntazam kuzatib borish (preparatni keyingi yuborishdan oldin kreatinin darajasini aniqlash) bilan tolerantlikka qarab cheksiz davom etishi kerak. Gipokalsiyemiyaning oldini olish uchun oldindan mavjud boʻlgan gipokalsiyemiya va D vitamini yetishmovchiligini korreksiyasi, shuningdek, terapiya paytida Ca va D vitamini preparatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

4. *Denosumab*

Tavsiya etiladigan doza 120 mg har 4 haftada 1 marta teri ostiga qorin, yelka yoki son sohasiga. Terapiya dastlabki oyi davomida qoʻshimcha ravishda preparat 120mg dozada t/o 8-chi va 15-kunlar yuboriladi. Davo kurs davomida qoʻshimcha ravishda kalsiy va vitamin D preparatlarini qabul qilish tavsiya qilinadi.

Metastatik koʻkrak bezi saratonini gormonoterapiyasi uchun tavsiya etiladigan preparatlar

LGRG¹ analoglari

- Triptorelin 3,75 mg m/o 28 kunda 1 marta
- Gozerelin 3,6 mg, t/o 28 kunda 1 marta yoki 10,8mg t/o 12 haftada 1 marta
- Buserelin 3,75 mg m/o 28 kunda 1 marta
- Leyprorelin 3,75 mg m/o 28 kunda 1 marta

Estrogen retseptorlari selektiv modulyatorlari²

- Tamoksifen 20 mg/sut. ichishga har kuni
- Toremifen 60 mg/sut. ichishga har kuni

Estrogenlar retseptorlari antagonistlari³

- Fulvestrant 500 mg m/o oyiga 1 marta (dastlabki 1 oyda – 500 mgdan 1-chi va 15-kunlar)

Uchinchi avlod aromataza ingibitorlari (nosteroid)³

- Anastrozol 1 mg/sut. ichishga har kuni
- Letrozol 2,5 mg/sut. ichishga har kuni
- Letrozol 2,5 mg/sut. ichishga har kuni + palbotsiklib 125 mg/sut. ichishga 1-21-kunlar, interval 1 hafta.^{3,5}

Uchinchi avlod aromataza ingibitorlari (steroid)³

- Eksemestan 25 mg/sut. ichishga har kuni
- Eksemestan 25 mg/sut. ichishga har kuni + everolimus 10 mg/sut. ichishga har kuni^{3,6}

CDK4/6 siklinga-bog‘liq kinazalar ingibitorlari

- Abematsiklib 200 mg sutkasiga 2 mahal har kuni
- Abematsiklib 150 mg sutkasiga 2 mahal har kuni + Letrozol 2,5 mg/sut. ichishga har kuni
- Abematsiklib 150 mg sutkasiga 2 mahal har kuni + Fulvestrant 500 mg m/o oyiga 1 marta (birinchi oyda – 500 mgdan 1-chi va 15-kunlar)
- Palbotsiklib 125mg/sut ichishga 1-21-kunlar, interval 1 hafta + Letrozol 2,5 mg yoki boshqa aromataza ingibitori 1 marta/sut butun 28-kunlik sikl davomida
- Palbotsiklib 125 mg/sut. ichishga 1–21-kunlar, interval 1 hafta + Fulvestrant 500 mg m/o oyiga 1 marta (birinchi oyda – 500 mgdan 1-chi va 15-kunlar)^{3,4}
- Ribotsiklib 600mg/sut ichishga 1-21 kunlar, 1 hafta interval bilan + Fulvestrant 500 mg m/o oyiga 1 marta (birinchi oyda – 500 mgdan 1-chi va 15-kunlar) 3
- Ribotsiklib 600mg/sut ichishga 1-21 kunlar, 1 hafta interval bilan + Letrozol 2,5 mg yoki boshqa aromataza ingibitori 1 marta/sut butun 28-kunlik sikl davomida 2

Progestagenlar³

- Medroksiprogesteron atsetat 500 mg/sut. ichishga har kuni
- Megestrola atsetat 160 mg/sut. ichishga har kuni

Eslatma:

¹ - Faqat premenopauzadagi bemorlarga.

² - Premenopauza va menopauzadagi bemorlarga.

³ - Faqat menopauzadagi bemorlarga.

⁴ - HER2-manfiy KBS bemorlar uchun; ushbu rejimning avval «letrozol + palbotsiklib», shuningdek «eksemestan + everolimus» kombinatsiyalarini olgan bemorlarda samaradorligi haqida ma'lumotlar yo'q.

⁵ - HER2-manfiy KBS bemorlar uchun gormon terapiyaning birinchi liniyasi sifatida; letrozol va palbotsiklib terapiyasi fonida progressiyalanish holatida gormonoterapiyaning boshqa liniyasining, shuningdek, palbotsiklib qo'shilgan liniyalarning samaradorligi haqida ma'lumotlar yo'q.

⁶ – umumiy holati qoniqarli bo'lgan, ichki a'zolar faoliyati normal bo'lgan (shu jumladan, qonda glyukoza miqdori me'yori bo'lgan) HER2-manfiy KBS bemorlar uchun, aromataza nomteroid ingibitorlariga rezistentlik belgilari bo'lganda (letrozol/anastrozol bilan ad'yuvant yoki davolovchi terapiya jarayonida yoki ushbu preparatlarni qabul qilish ± kimyo terapiyaning bitta liniyasi yakunlanganidan yaqin 12 oy ichida progressiyalanish); eksemestan va everolimus bilan terapiya fonida progressiyalanishda, gormonoterapiyaning boshqa liniyasining, shu jumladan, everolimus qo'shilganda samaradorligi haqida ma'lumotlar yo'q.

Estrogen va/yoki progesteron-pozitiv retsidiv yoki disseminatsiyalangan ko'krak bezi saratonining gormonoterapiyasi

Premenopauza yoshi va HER2-manfiy tip

- Estrogen retseptorlari selektiv modulyatorlari (tamoksifen yoki toremifen) yoki xirurgik kastratsiya /tuxumdonlar faoliyatini bostirish plyus gormonoterapiya, postmenopauzadagi ayollar uchun ham.

Premenopauza yoshi va HER2-pozitiv tip

- Tamoksifen ± trastuzumab yoki xirurgik kastratsiya /tuxumdonlar faoliyatini bostirish plyus gormonoterapiya, , postmenopauzadagi ayollar uchun ham.

Postmenopauza yoshi va HER2-manfiy tip

- Nosteroid aromataza ingibitorlari (anastrozol, letrozol)
- Tamoksifen yoki toremifen
- Megestrol atsetat
- Steroid aromataza ingibitorlari (eksemestan)
- Eksemestan + everolimus ^{1,2}
- Everolimus + fulvestrant
- Everolimus + tamoksifen

- Palbotsiklib + aromataza ingibitorlari (1-toifa)^{2,3}
- Palbotsiklib + fulvestrant (1-toifa)^{2,4}
- Ribotsiklib + aromataza ingibitorlari (1-toifa)^{2,3}
- Ribotsiklib + fulvestrant (1-toifa)
- Abematsiklib + fulvestrant⁷
- Abematsiklib + aromataza ingibitorlari³
- Abematsiklib monoterapiyada⁷
- Estrogenlar retseptorlari antogonistlari (fulvestrant, 1-toifa)⁶
- Alpelisib* + fulvestrant

Postmenopauza yoshi va HER2-pozitiv tip

- Aromataza ingibitorlari ± trastuzumab
- Aromataza ingibitorlari ± lapatinib
- Aromataza ingibitorlari ± lapatinib + trastuzumab
- Fulvestrant ± trastuzumab
- Tamoksifen ± trastuzumab

Eslatma:

¹ - Ekzemestanning everolimus bilan kombinatsiyasi BOLERO-2 klinik tadqiqotining tanlash mezonlariga javob beradigan bemorlar uchun ko‘rib chiqilishi mumkin (davolash tugaganidan keyin yoki nosteroid aromataza ingibitorlarini qabul qilganda 12 oy ichida progressiyalanishi).

² - CDK4/6 ingibitorlari bilan terapiyaga progressiyalanish kuzatilganda, CDK4/6 – ingibitorlari saqlovchi rejimlar bilan davoni davom ettirish to‘g‘risida ma‘lumotlar yo‘q. Analogik tarzda, agar everolimus saqlovchi rejim qo‘llanilganda kasallikning progressiyalanishi kuzatilsa, everolimus saqlovchi rejimlar bilan davoni davom ettirish to‘g‘risida ma‘lumotlar yo‘q.

³ - Palbotsiklib (PALOMA-1), ribotsiklib (MONALEESA) va abematsiklib (MONARCH-3) aromataza ingibitorlari (anastrozol, letrozol yoki ekzemestan) bilan birgalikda pre-postmenopauzadagi musbat gormonal statusli va HER2-negativ metastatik ko‘krak bezi saratoni bemorlarini birinchi liniya terapiyasi varianti tarzida ko‘rish mumkin.

⁴ - *postmenopauzadagi yoki premenopauzadagi ayollar, LGRG agonistlari qabul qilgan, musbat gormonal statusli va HER2-negativ metastatik ko'krak bezi saratoni bemorlari uchun, dastlabki ad'yuvant yoki endokrin terapiyadan so'ng progressiyalanish fonida.*

⁵ – *Dastlabki endokrin terapiyadan so'ng progressiyalanishdan so'ng buyuriladi.*

⁶ – *Klinik tadqiqotda (S0226) gormon musbat ko'krak bezi saratoni ayollarda, metastatik jarayon sababli dastlabki ximioterapiya yoki endokrin terapiyasiz, anastrozolga fulvestrantni qo'shish progressiyalanishgacha bo'lgan davrni uzayishiga olib keldi. Gruppa osti tahlili shuni ko'rsatdiki, tamoksifenni ad'yuvant rejimda dastlabki tavsiya etilishsiz, va tashhis qo'yilgandan 10 yil o'tgan bo'lsa, davolashdan eng yaxshi natijalar olindi. Analogik dizanli ikkita tadqiqot (FACT va SOFEA) fulvestrantni anastrozolga qo'shish progressiyalanishgacha bo'lgan vaqtda afzallikni namoyon qilgani yo'q.*

⁷ – *Dastlabki gormonterapiyaga progressiyalanishdan so'ng yoki dastlabki ximioterapiyadan so'ng jarayon progressiyalanishida buyuriladi.*

** fulvestrant bilan kombinatsiyada postmenopauzadagi ayollarga va gormonal retseptorlari mustab (HR+), 2-tipdagi odam epidermal o'sish omili retseptori manfiy (HER2-) erkaklarda tarqalgan yoki metastatik ko'krak bezi saratoni PIK3CA (PIK3CA+) geni mutatsiyasida, endokrin terapiya rejimlari o'tkazilgan vaqtda/keyin kasallik progressiyalanganda tavsiya etish ko'rib chiqilishi mumkin.*

- **Past havf:** uzoq retsivdivsiz davri bo'lgan, musbat gormonal retseptorlari bo'lgan, faqat suyak shikastlangan, ichki organlarga zarar yetmagan bemorlar;
- Menopauzal bemorlarda aromataza ingibitorlari bilan gormon terapiya o'tkazish;
- Jarayon progressiyalanishida bemorlarga antiestrogenlar tavsiya qilinadi;
- Jarayonning keyingi progressiyaldanishida gormon terapiyaning III liniyasi – fulvestrant;
- Fulvestrantga refrakterlikda ximioterapiyaga o'tiladi;
- Premenopauzadagi ayollarda 8 ta va undan ortiq metastatik limfa tugunlari mavjud bo'lganda, PXT yakunlanganidan va stabil klinik samaraga erishilgandan so'ng, menstrual faoliyat davom etsa, tuxumdonlar faoliyatini to'xtatish ko'rsatiladi (rilizing-gormonlar LGG agonistlari yoki ovariektomiya). So'ngra kasallik progressiyalanishiga qadar antiestrogen tavsiya qilinadi;
- ISH tasdiqlangan (amplifikatsiya +) Her 2/neu (+3) yoki Her-2/neu (2+) giperekspressiyasida, kimyoterapiya davolash sxemasiga trastuzumab qo'shiladi. Trastuzumab bilan terapiyaga progressiya kuzatilgan bemorlarda, target terapiya ikkinchi liniyasiga lapatinib 1250 mg/sut kapetsitabin yoki paklitaksel bilan

kombinatsiyasiga extimol o‘tish mumkin. Keyingi progressiyalanishda – trastuzumab emtanzin 3,6 mg/kg 21 kunda 1 marta progressiyalanishgacha yoki rchidab bo‘lmas toksiklik kuzatilguncha;

- KBSning Lyuminal B tipi bemorlarida lapatinib 1250 mg/sut bilan target terapiya gormonal terapiya – aromataza ingibitorlari bilan kombinatsiyasi;
- Suyak metastazlari mavjud bo‘lganda, kasallikning istalgan bosqichida davo sxemasiga bisfosfonatlarni (Pamidron kislota, Zoledron kislota, denozumabni) qo‘shish;
- Zarurat bo‘lsa – NTni qo‘shish. Bosh miyaga metastazlar kuzatilganda:
- GEBdan o‘tuvchi barcha trop preparatlar, jumladan temodalni qo‘shish bilan kimyo nur terapiya;
- Yaralangan, infitsirlanish, qon ketish asorati bilan bo‘lgan o‘sma bilan KBS bemorlarida, sanitar maqsadda palliativ mastektomiya bajariladi. Davo kimyo nur, gormonal terapiya bilan to‘ldiriladi.

33-jadval

Asosiy dori-vositalarning ro‘yxati (100% foydalanish ehtimoli bilan): [1,7]:

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining XPN	Qo‘llash tartibi	Dalillar darajasi
Alkillovchi agentlar - platinaning kompleks birikmalari	sisplatin	75 mg/m ² 1-kun, v/i	A
	karboplatin	AUC 5-6 1-kun, v/i	
Mikronaychalar ingibitorlari – taksanlar	dots.taksel	75 mg/m ² 1-kun, v/i	A
	paklitaksel	175 mg/m ² 1- kun, v/i	
Pirimidin antagonistlari – ftorpirimidinlar	kapetsitabin	2000 mg/m ² , 1- 14 kunlar, tabletkalar, ichishga	C
Mikronaychalar ingibitorlari – barvinka alkoloidlari	vinorelbin	25 mg/m ² 1,8, 15 kunlar, v/i	A
	eribulin	1,4 mg/m ² v/i v	
Poli odam fermenti (ADF- riboza) polimeraza (PARP) ingibitori	olaparib	300 mg, sutkasiga 2 mahal, tabletkalar, uzoq vaqt, ichishga	A
	talazoparib	1mg har kuni, , tabletkalar, uzoq	

		vaqt, ichishga	
O'sish omiliga va ularning retseptorlariga monoklonal antitanalar	bevatsizumab	7,5-15 mg/kg 3 haftada 1 marta progressiyalanish gacha, v/i	A
	trastuzumab	2 mg/kg (yuklama doza – 4 mg/kg) v/i	B
	trastuzumab derukstekan *	5,4 mg/kg v/i 1-kun har 3 haftada	
	pertuzumab	420 mg (yuklama doza – 840 mg) v/i	
O'smaga qarshi antibiotiklar – antratsiklinlar	doksorubitsin	50-60 mg/m ² , 1-kun, v/i	A
Antimetabolitlar –sitidin analoglari	gemsitabin	1000 mg/m ² 1-chi, 8-chi va 15-kun, v/i	A
Antimetabolitlar - antifolatlar	metotreksat	2,5 mg har haftaning 1-chi va 2-chi kunlari, ichishga	A
Estrogen retseptorlari selektiv modulyatorlari	tamoksifen	40 mg/sut, ichishga	B
	toremifen	60 mg/sut. ichishga	
Uchinchi avlod aromataza ingibitorlari (steroid)	everolimus	10 mg/sut. ichishga	B
	eksemestan	25 mg/sut. ichishga har kuni	B
Progestagenlar	medroksiprogesteron atsetat	500 mg/sut. ichishga	B
	Megestrol atsetat	160 mg/sut. ichishga	
CDK4/6 siklin- bog'liq kinazalar ingibitorlari	abematsiklib	150 mg sutkasiga 2 mahal	B
	ribotsiklib	600 mg ichishga 1 marta/sut	
	palbotsiklib	125 mg ichishga 1 marta/sut	
Estrogenlar retseptorlari antagonistlari	fulvestrant	500 mg m/o	B
	lapatinib	1250 mg ichishga 1 marta/sut	C

LGRG analoglari	triptorelin	3,75 mg m/o	C B
	gozerelin	3,6 mg t/o 28 kunda 1 marta yoki 10,8 mg t/o 12 haftada 1 marta	
	buserelin	3,75 mg m/o	
	leuprorelin	3,75 mg m/o	
Uchinchi avlod aromataza ingibitorlari (nosteroid)	letrozol	2,5 mg ichishga	B
	anastrozol	1 mg/sut. ichishga	
Bisfosfanatlar guruhiga mansub suyak rezorbsiyasi ingibitori	Pamidron kislota	90mg v/i 4-soatlik infuziya 3-4 haftada 1 marta	B
	Zoledron kislota	v/i tomchilab 15 daqiqa davomida 4 mg 3-4 haftada 1 marta	B
suyak to'qimasi rezorbsiyasi ingibitori. Monoklonal antitana	denosumab	120 mg teri ostiga	A
O'smaga qarshi antibiotik	epirubitsin	60–90 mg/m ² v/i	A
Immunoonkologik preparatlar	pembrolizumab	200mg v/i 21 kunda 1 marta	A
Ma'lumotlarni yuklab olish uchun (havolalar)	https://nrchd.kz/ru/		

**Registratsiya qilinmagan DVLarni qo'llash qoidalariga mos ravishda.*

34-jadval

Qo'shimcha dori-vositalarning ro'yxati (foydalanish ehtimoli 100% dan kam):

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining XPN	Qo'llash tartibi	ID
Antibakterial vositalar	Ofloksatsin	Vena ichiga	C
	Sefoperazon sulbaktam	Vena ichiga	C
	Metronidazol	Vena ichiga Ichga	A
	Levofloksatsin	Vena ichiga Ichga	C
	Siprofloksatsin	Vena ichiga Ichga	C

	Sulʼfametoksazol /trimetoprim	Vena ichiga Ichga	C
Zamburugʻga qarshi dori vositalari	Vorikonazol	Vena ichiga Ichga	C
	Itrakonazol	Ichga	C
	Flukonazol	Vena ichiga Ichga	A
	Pozakonazol	Ichga	B
Virusga qarshi dori vositalari	Atsiklovir	Vena ichiga Ichga	A
Qon ivish tizimiga taʼsir qiluvchi dori vositalari	Nadroparin	Teri ostiga	C
	Enoksaparin	Teri ostiga	C
Boshqa dori vositalari	Bupivakain, Lidokain, Prokain	Mahalliy	A
	Omeprazol	Vena ichiga Ichga	A
	Famotidin	Vena ichiga	A
	Ambroksol	Ichga	B
	Amlodipin	Ichga	B
	Povidon – yod	Tashqi	C
	Tobramitsin	Vena ichiga	C
	Essentsiale	Vena ichiga Ichga	A
	Furosemid	Vena ichiga Ichga	A
	Xlorgeksidin	Tashqi	B
Maʼlumotlarni yuklab olish uchun (havolalar)	https://www.rosoncoweb.ru/standarts/suptherapy/http://www.pror.ru/treatment/accomp		

6. Jarrohlik aralashuvi.

Metastatik KBSda jarrohlik usulida davolash

- sanitar/oddiy mastektomiya (qon ketish havfi boʻlganda hayotiy koʻrsatmalar bilan);
- jigarni ochiq biopsiyasi (jigarda metastazlarga gumon boʻlganda bajariladigan diagnostik amaliyot);
- jgardagi boshqa diagnostik amaliyotlar (jigarda yakka metastatik oʻchoqlar boʻlganda jigarni rezeksiya qilish);
- bosh miya qobigʻining zararlangan hududi yoki toʻqimasini kesish (bosh miya


qobig'ining yakka metastatik o'choqlari mavjud bo'lganda);

- bosh miya to'qimalarining shikastlangan joyini yoki to'qimasini kesish va destruksiya qilishning boshqa turlari (bosh miyada solitar metastatik o'choqlar mavjud bo'lganda);
- o'pka segmentini pretsizion rezeksiyasi (o'pkada solitar metastatik o'choqlar mavjud bo'lganda);
- laparoskopik salpingoovariektomiya (predmenopauzadagi KBS bemorlarida gormonga sezgir o'smalarda (ER+, PR+) profilaktik ikki tomonlama ortiqlarni olib tashlash);
- ortiqlar bilan total gisterektomiya (tuxumdonlar, bachadon tanasining metastatik shikastlanishida);
- teri ichi metastatik shikastlanishlarida elektrokimyo terapiya (hujayra membranasi elektroporatsiyasi bilan assotsirlangan kimyo terapevtik dorilarni yuborish bilan kombinirlangan davo).

KBSni jarrohlik usulida davolashga qarshi ko'rsatmalar:

- bemorda nooperabellik belgilari bo'lsa va og'ir hamroh patologiya belgilarining mavjudligi;
- uzoq metastaz, tarqalgan o'sma jarayonining mavjudligi;
- sinxron mavjud va boshqa lokalizatsiyadagi tarqalgan nooperabel o'simta jarayoni, masalan, o'pka saratoni va boshqalarning mavjudligi;
- nafas olish, yurak-qon tomir, siydik tizimi, oshqozon-ichak traktining surunkali dekompensatsiyalangan va/yoki o'tkir funksional buzilishlari;
- umumiy narkoz uchun ishlatiladigan dorilarga allergiya [8] (DD-V).


3-rasm. Ko'krak bezi saratonini bosqichiga qarab davolash-diagnostik tadbirlar algoritmi.



³ 1 bosqichda neoad'yuvant dori terapiyasi faqat klinik sinovlardagina tavsiya etiladi. Neoad'yuvant XT standart rejimlar (4-5-jadvallar) va tavsiya etilgan dozaning intensivligiga majburiy rioya qilish (standart dozalar va kurslar orasidagi intervallar) yordamida amalga oshirilishi kerak. Standart neoad'yuvant dori terapiyasini (antratsiklinlar, taksanlar, trastuzumab, pertuzumab, G-KSF) amalga oshirishni kafolatlash uchun zarur moddiy resurslar bo'lmasa, birinchi bosqichdagi birlamchi operabel KBSda jarrohlik davolashni amalga oshirish tavsiya etiladi;

⁴ Neoad'yuvant XTni to'liq qabul qilgan bemorlarga yordamchi XT tavsiya etilmaydi. Neoad'yuvant XT biron sababga ko'ra operatsiyadan oldin to'liq bajarilmasa, operatsiyadan keyingi davrda yetmagan davolash kursini o'tkazish tavsiya etiladi. Uch karra negativ fenotipli (ER, PR va HER2 manfiy) KBS bilan kasallangan bemorlar antratsiklinlar va taksanlar bilan neoad'yuvant KXTni to'liq olgan bo'lsa, rezidual o'sma mavjud bo'lganda, kapetsitabin** (2000 mg/m² 1-chi – 14-kunlar har 3 haftada. 6 oy davomida) ad'yuvat KT tavsiya qilinishi mumkin.

